

Date: 7th February-2026

YASHIL BUDJETLASHTIRISH VA UNI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDDA
JORIY ETISH ZARURATI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Xushimqulov Alibek Uktam o'g'li
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirishni joriy etishning naqadar dolzarbligi to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, mamlakatning yashil byudjetlashtirishni ta'minlashda asosiy mexanizmlar, respublikada yuritilayotgan siyosiy va amaliy ishlar bo'yicha prognozlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, yashil byudjetlashtirish, davlat byudjeti, byudjet xarajatlari, energetika, yashil makon.

Annotation: This thesis talks about the role of introducing green economy and green budgeting in the Republic of Uzbekistan. Also, the main mechanisms for ensuring the country's green budgeting, forecasts on the political and practical work carried out in the republic are shown.

Key words: green economy, green economy, green budgeting, state budget, budget expenditures, energy, green spaces.

Аннотация: В данной рассматривается роль внедрения зеленой экономики и зеленого бюджетирования в Республике Узбекистан. Также представлены основные механизмы обеспечения зеленого бюджетирования в стране, а также прогнозы по проводимой в республике политической и практической деятельности.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленая экономика, зеленое бюджетирование, государственный бюджет, бюджетные расходы, энергетика, зеленые насаждения.

Insoniyat so'ngi yigirma yillikda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning taqchilligi, bioxilmaxillikning yo'qolib ketishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi singari juda ko'plab dolzarb hisoblangan muammolarga duch kela boshladi. Ushbu tizimli global muammolarning barchasi uzviy bog'liq bo'lganligi bois, ularni alohida hal etib bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida ushbu muammolarga ham ekologik, ham iqtisodiy jihatdan yondoshgan holatda yechim izlashni taqazo etadi. Shu boisdan oxirgi yillarda "yashil iqtisodiyot", "yashil byudjetlashtirish" kabi iboralarni ko'p bora eshitib kelmoqdamiz. "Yashil iqtisodiyot" deganda ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda tabiatga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyot tushuniladi..

Misol uchun 2023 yil 17-may kuni Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) Boshqaruvchilar kengashining "Muvofiqlikka sarmoya kiritish" mavzusidagi 32-yillik yig'ilishi doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Yevropa ittifoqi va Fransiya taraqqiyot agentligi o'rtasida "O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot hamkorligi bo'yicha" 10,2 mln yevro miqdorida texnik ko'mak mablag'lari ajratilishiga qaratilgan kelishuv imzolandi. Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishga ko'maklashishga



Date: 7th February-2026



qaratilgan "Yashil" iqtisodiyot bo'yicha davlat siyosati sohasida qarz dasturi loyihasi amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur dastur doirasida qazilma yoqilg'ilari subsidiyalarini xatlovdan o'tkazish va qisqartirish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash bo'yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish, milliy miqyosda issiqxona gazlari tashlanmalarining monitoringi, hisoboti va tekshiruvi (MRV) tizimi joriy etish, "yashil" byudjetlashtirish va soliqlar tortishni joriy qilish hamda boshqa yo'nalishlarda ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni ilgari surish va joriy etish bo'yicha vakolatli organ sifatida esa Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi belgilangan. Ushbu strategiyada yuqorida ko'rsatilgan "Yashil" o'sish indeksi bo'yicha mamlakatimizning past ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlardagi ishlarni amalga oshirish belgilangan: - iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish; - energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish; - iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish. Mazkur strategiya doirasida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar natijasi o'laroq, "Yashil" o'sish indeksidagi mamlakatning o'zni sezilarli yaxshilanishi hamda global "yashil" ekotizimni asrab avaylashda uning munosib hissa qo'shishi ta'minlanadi. Ushbu qarorda O'zbekiston "yashil iqtisodiyot" ning asosiy bo'g'inlari bo'yicha qanday vazifalarni amalga oshirishi lozimligi aniq belgilab berilgan.

O'zbekistonda ham yashil budjetlashtirishga har qanday yondashuv mamlakatning mavjud davlat moliyaviy boshqaruvi (DMB) tizimiga asoslanishi va shu bilan mavjud budjetlashtirish jarayonining kuchli tomonlari va cheklovlariga mos kelishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mamlakatda samarali budjetlashtirishning kuchli tizimi mavjud bo'lsa, bu mamlakat milliy ekologik va iqlim maqsadlari bilan bog'liq samaradorlik maqsadlarini birlashtirishga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, mamlakatda budjet xarajatlarni ko'rib chiqish jarayonlari yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, bu mamlakat budjet samaradorligi bilan bir qatorda chora-tadbirlarning iqlim maqsadlariga ta'sirini ham hisobga olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mamlakat darajasida yashil budjetlashtirishni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga olish talab qilinadi:

Birinchidan, budjet mablag'lari va davlat sektori sub'ektlarining atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarini qamrab olishi lozim.

Ikkinchidan, budjet siyosatining ekologik maqsadlarga muvofiqligini baholash uchun foydalaniladigan metodologiya xalqaro standartlar asosida bo'lishi lozim.

Uchinchidan, davlat nazorati organlari tomonidan davlatning har bir sektori ustidan nazorat samaradorligi yuqori bo'lishi kerak.

Date: 7th February-2026

To'rtinchidan, ushbu jarayonning shaffofligi va hisobdorligi ta'minlanishi, jamoatchilik nazoratini to'g'ri tashkil qilish lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o'tish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda «2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-436-sonli Qarori.
4. BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha dastlabki konvensiyasi doirasida qabul qilingan Parij bitimi. 2015 yil 12 dekabr.

